

“USTOZ OTANGDEK ULUG‘”

*Xalniyazova Ra'no Quvonichboy qizi*

*O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi Nukus filiali 2-kurs talabasi*

*Ilmiy rahbar: Kamalova Gulmayram.*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada xalqimizning ustozga bo'lgan hurmat-ehtiromini, ustoz va shogird o'rtasidagi iliq munosabatlarni chuqur aks ettiradi. Unda nafaqat bilim olish, balki inson kamolotiga yo'l ochuvchi ustozlarning beqiyos o'rni haqida so'z yuritiladi. Hamda shogirdning ustozga bo'lgan mehr-muhabbati va sadoqati, ustozning esa shogirdiga bo'lgan mehribonligi, bilim va tarbiyaning qanday qilib avlodlar o'rtasida uzviy bog'lanishini ko'rish mumkin. O'quvchi asar davomida ustozga bo'lgan hurmatning ahamiyatini teran anglaydi va hayotda ustoz maslahati va saboqlarining naqadar muhimligini tushunadi.

**Kalit so'zlar:** Ustoz, shogird, hurmat, tarbiya, bilim, kamolot, Sadoqat, O'rnak, Maslahat, Saboq, Hayotiy tajriba, Insoniylik, Ehtirom.

**Аннотация:** В данной статье глубоко отражается уважение нашего народа к учителю и теплые отношения между учителем и учеником. Здесь говорится не только о получении знаний, но и о незаменимой роли учителя в духовном становлении личности. Также показана любовь и преданность ученика к своему наставнику, доброта учителя к своему ученику, а также как знания и воспитание передаются из поколения в поколение. Читатель в процессе изучения произведения глубже осознает важность уважения к учителю и понимает, насколько значимы советы и уроки наставников в жизни.

**Ключевые слова:** Учитель, ученик, уважение, воспитание, знания, развитие, преданность, пример, совет, урок, жизненный опыт, человечность, почтение.

**Annotation:** This article deeply reflects our nation's respect for teachers and the warm relationships between teachers and students. It discusses not only the acquisition of knowledge but also the indispensable role of teachers in shaping an individual's spiritual growth. It also highlights the love and devotion of students to their mentors, the kindness of teachers toward their students, and how knowledge and upbringing are seamlessly passed down through generations. Readers, while studying the work, gain a deeper understanding of the importance of respecting teachers and realize the significance of their guidance and lessons in life.

**Keywords:** Teacher, student, respect, upbringing, knowledge, development, devotion, example, advice, lesson, life experience, humanity, reverence.

Xalqimizda “Ustoz otangdek ulug‘” — degan hikmat bejiz aytilmaydi. O‘tgan ulug‘larimiz, ota-bobolarimiz ustoz va muallimlarning haqqini yaxshi bilganlar, ularning qadri baland ekanligini chuqur anglaganlar va shunga ko‘ra muomala qilganlar albatta jamiyat o‘z o‘rnini topadi. Ustoz. Shu birgina so‘zda olam-olam ma’no va hurmat ifodalangan. Ustoz- bu o‘zidan keyin har bir insonning hayotida juda muhim iz qoldiruvchi inson hisoblanadi. Chunki har bir kasb egasi, muallim-o‘qituvchi yordamida o‘z yo‘lini topadi desak xato bo‘lmaydi. Insonga o‘z bilimini, iqtidorini va hayotini baxsh etgan ustozlarning xizmatlarini hamma zamonlarda hurmatlab, e‘zozlab kelishgan. Ustoz haqida turli xil kitoblar, hikmatlar, maqolalar, ibratli so‘zlar keltirilib o‘tilgan. Jumladan: “Ustoz ko‘rgan xat tanir”, “Ustozsiz shogird-jonsiz kesak”, “Har ishning bir ustasi bor, Har ustaning bir ustoz bor”, “Ustoz bilimli- shogird ilimli” va boshqa kabi maqolalar aytilgan. Biz otani ko‘klarga ko‘tarib maqtaymiz. Ammo otaday ulug‘deb tariff beriluvchi inson bor, bu – ustozdir. Haqiqatan ham ota-onamiz bizni voyaga yetkazadi, ustoz esa unib-o‘shishimizga, kamolatga erishishimizga, ilimli bo‘lishimizga, muvaffaqiyatga erishishimizga ko‘maklashadi. O‘z qalbini, aqlini, tajribasi va bilimini bizning yo‘limizga umrini baxshiyda etadi. Muvaffaqiyatga erishganimizni ko‘rib quvonadi, muvaffaqiyatsizligingdan g‘am chekib, qayg‘uyimizga sherik bo‘ladi.

Ustoz bog‘bonga o‘xshaydi. U tarbiyalab o‘stirgan nihollar- jamiyat rivojlanishi uchun poydevor hisoblanadi. Shuning uchun ham “Ustoz va murabbiy”larning ma’suliyatli, ammo sharaflari kasb hisoblanadi.

Ma’lumotlarga qaraganda har bir sekundda 3 odam dunyoga keladi ekan ham ularning har birini qaytalanmas umr yo‘li kutadi. Kimdur odam davolaydi, kimdur uzog‘imizni yaqin qiladi yana kimdur boshqalarni og‘ir vaziyatdan qutqarib qoladi. Lekin bir kasb egasi bor bizning dunyoyimizni yoritib, tafakkur dunyoyimizni yangi bilimlar bilan boyitadi. U inson bergan bilim orqali bu dunyoga kelganimizni, nima sababdan yashayotganimizni, hayotda oldimizga maqsad qo‘yishimizni va baxtli kelajakka talpinib yashash kerakligini o‘rganamiz. Ustoz qaysi o‘quv yurtida bo‘lishidan qat’iy nazar seni kamol topishing uchun yordamini ayamaydi. Shu qatori bizning oliy o‘quv yurtimizdagi ustozlar ham jon jahtini berib, ta’lim beriyapti desak mubolag‘a bo‘lmaydi. O‘quv yurtimizdagi har bir muallim o‘zining beqiyos o‘rni bor, bir birining o‘rnini biri bosa olmaydi. Shular orasida yoshi katta, ko‘pni ko‘rgan, jamiyatda o‘z o‘rniga ega, e’tirofqa sozavor, hurmatga loyiq ustozlar qatorida – Hikmat Radjapov haqida aytib o‘tsam!

Hikmat Radjapov bo‘ychan, bug‘doy rangli, istarasi issiq domla bo‘lib, u to‘g‘ri so‘z, hazilkash, dunyo qarashi keng, murosachi inson. Bu inon san’at va ijodni o‘z umrining mazmun-mohiyati deb bilgan. Hikmat Rajabov 1950-yili 1-fevralda Buxoro viloyati Buxoro tumani Otbozor QFY “Shiribadan” qishlog‘ida ishchi dehqon oilasida o‘n yildan buyon intizorlik bilan kutilgan farzand dunyoga keladi. Uning ota-

onasi mehribon, chiroyli qalb egalari bo'lganliklaridan ularning san'atga bo'lgan ishtiyoqi, zavqi farzandlariga ta'sir ko'rsatdi. Otasi Juma Rajabov (1900-1985)- radio muhlisi bo'lib, ayniqsa Shashmaqom va mumtoz ashulalar shaydosi edi. Ustoz Ma'murjon Komiljonlar kuylasa o'zlari ham birga qo'shilib qo'shiqqa sheriklik qilardi.

Onasi Zevar aya (1912-1975)- uy bekasi bo'lib, bolalar tarbiyasi bilan shug'illanardi. Ikki o'gil farzandni dunyoga keltirgan mehribon ona. Hikmat oilada to'ng'ich o'g'il bo'lib, unga mehri boshqacha. Ota –onasi uni Oллоhdan so'rab-so'rab 10-yil deganda bag'riga olgan. Oллоhning biror ishi hikmatsiz emas ekan deb ismini Hikmat qo'ygan. Onasi unga „sizni yaratgandan so'raganmiz, murodingizga yetasiz, Xudo xohlasa biroq osolikcha emas, sabr – toqat qilish kerak, halol mehnat qilish kerak, to'g'rilikda hikmat ko'p deb” o'limidan oldin aytgan edi. H. Rajabov hozirgacha shuni aytadiki onasining nozik tovushi, xushro'y alla aytishlarini hali hanuzgacha hech kimdan eshitmaganman deb. Ayniqsa alla aytishlari sehirli sadolarining maftunkorligidan, ularning tizzalariga bosh qo'ysak uxlab qorar edik deb takidlaydi. San'at olamiga qiziqish yoshligidan boshlangan bo'lib qo'shiq, kuylar yoki asarlar to'g'risida otasi bilan muhokama hamda bahslashardi. Maktabda o'qib yurgan paytlarida qishlog'idagi Usmon aka Salihovlar oilasida balalayka bor edi Usmon aka hech ikkkilanmay unga bu asbobda chalishni o'rgatdi. Bundan o'zida yo'q hursand, tengdoshlari ham bunnan mamnun edi ham Hikmatka „Muzikant” deb nom qo'yib olgan. Maktabda o'tkaziladigan ko'rik tanlovlarda juda faol qatnashib birinchilikni egallashga harakat qilagan. Keyinchalik 1966-yili maktabni tugatib, Buxoro musiqa bilim yurtiga o'qishga kirishga musharrax bo'ldi. Shu sababda otasi unga qashqar rubobi asbobini sotib olib berdi. Bu o'quv dargohidaga qabul qilish imtihonida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist taniqli ustoz Ahmadjon Ixtiyorov topshirgan. Ustoz uning ijro mahoratini ko'rib tan bergan ishonch yuzasidan unga „senda yaxshi dirijyor chiqadi” deb aytgan edilar. Bu so'zni eshitib juda xursand bo'lgan.

Musiqa bilim yurtida qashqar rubobi mutaxassisligi bo'yicha ustoz Mo'minjon Xojiev sinfida tahsil olgan. O'zbekistonga xizmat ko'rsatgan o'qituvchi Ma'murjon Toshpo'latovdan Shashmaqom sirlarini o'zlashtirgan. O'qib yurgan yillarida taniqli san'atkor, o'z davrining e'tiborli insoni, xalq artisti, kompozitor, Toshkent Davlat Konservatoriyasining rektori, professor Muxtor Ashrafiy bilim yurtiga tashrif buyiradi va o'sha bilim yurtidagi iqtidorli o'quvchilar bilan tanishib, suhbatlashadi. O'sha paytta o'quvchilar orasidagi Hikmat Rajabov bilan suhbatlashib unga: „sen o'qishingni konservatoriyada davom etishing shart” deb unga ishonch bilan aytganda u juda sevingan edi. Hamda 1973-yili Buxoro bilim yurtini tugatib, xuddi shu yili Konservatoriyaga qashqar rubobi mutaxassisligi bo'yicha topshiradi va o'qishga qabul qilinadi. U yerda konservatoriyaning etakchi mutaxassislaridan biri professor Feoktist Nikiforovich Vasilevga shogird tushdi. Bu inson qashqar rubobi bo'yicha dars berib

umrining so'ngigacha shu dargahda yoshlarga ta'lim berib kelgan. Dirijyorlik bo'yicha O'zbekiston xalq artisti, taniqli kompozitor, professor Fattox Nazorovda tahsil oladi. Konservatoriyada ustoz Muxtor Ashrafiy ta'limni olish u uchun baxt edi. U fanlarni yaxshi o'zlashtirib, jamoat ishlarida faol qatnashganligi uchun domlari „sen bilan faxirlanaman, kelajaging porloq“ deya ishonch bildirardi. Hamda 1975-yilida O'zbekistonlik talaba-yoshlar nomidan Moskovada bo'lib o'tadigan katta anjumanga borib ishtirok etish imkoniyatini qo'lga kiritdi.

1976-yili ya'ni 4-kurs bo'lgan paytida, raxbariyat bir guruh talaba-yoshlarni o'qish barobarida tajriba ham orttirsin degan maqsad bilan Guliston shahridagi musiqa bilim yurtiga o'qituvchi sifatida o'qishga jo'natadi. Hamda u yerga borib, dars bera boshlaydi shu bilan birga bir qator shogird tayyorlashga muvaffaq bo'ladi. 1978-yili konservatoriyani bitirish arafasida ustozni Feoktist Nikiforovich nafaqaga chiqish fursati etib, o'rniga shogirdi Hikmat Rajabovni ishlashni unga taklif qiladi. Lekin uning otasi Buxoroda yolg'iz qolganligi uchun taklifini qabul qila olmaydi. Ammo ustoz o'limidan oldin farzandlariga vasiyat qilib: „Buxoroga telefon qilib, shogirdim Hikmatni topib mening rubobimni unga beringlar“ deya vasiyat qilgan ekan. O'sha rubob hanuzgacha ardoqlab, yaratgan asarlarini ilk bor o'sha rubobda ijro qiladilar. Shu tariqa konservatoriyani tugatib ona shahri Buxoroga qaytib boradi hamda u yerda uni o'qituvchi va viloyat teatrda bosh dirijyor bo'lib ishlaydi. Dirijyorlik faoliyatida anchadan beri niyat qilib yuragan musiqali drama asarlarida xalq cholg'ulari orkestr ijrosi yangrashni xohlardi. Niyati amalga ham oshdi: „Layli va Majnun“, „Fotima kampir lotereyasi“, „Arshin mololon“, „Navoiy“, „Dilorom“, „Guli siyoh“ spektakllarida o'z tashabbusini qo'llashga muvaffaq bo'ldi. 1980-1982-yillarida viloyatlar uzra gastrollar, Respublika televedeniyasida chiqishlar qildi.

1984-yildan 1987-yilgacha viloyat Davlat filarmoniyasida rahbar lavozimida ishladi. U yerda oldin simfonik orkestrga so'ngra xalq cholg'ulari orkestrini boshqargan edi. 1987-1997-yillarda Buxoro davlat san'at bilim yurtida rahbar sifatida faoliyat yuritdi. 1997-yili avgust oyida Buxoro viloyat hokimligi madaniyat ishlari bo'yicha boshqarma boshlig'i lavozimiga tayinlangan. Har bir ijodkor inson poytaxtga intilishi tabiiy hol. Shuning uchun ham Hikmat Rajabov 2001-yili Toshkentga keladi va o'z faoliyatini O'zbekiston davlat konservatoriyasi hamda Respublika musiqa kolledjiga oliy toifali o'qituvchi sifatida ish boshlagan. Ko'p o'tmay 2007-yilda O'zbekiston Bastakorlar uyushmasiga a'zo bo'ldi. Hikmat Rajabov ijodiy faoliyati davomida turli janrlarda yuzdan ziyod asarlar yozgan, shulardan 27 tasi radioning „Oltin fond“iga yozildi. Shulardan „Mustaqillik maydoni“, „Oh, oppoq kapalak“, „Sog'inchlarim bor“, „Hayrat“, „Qalb nidosi“ va boshqa asarlari yozilgan. Hamda O'zbekiston xalq shoirasi X.Xudoyberdieva so'zi bilan „Aytolmadim“, shoir Zohidjon Obidovning „Bahor kelib“ komer orkestr uchun „Hayrat“ romansi, orkestr

uchun yozgan „Vals”, Oygul Suyundiqova so'zi bilan „Mustaqillik maydoni” kabi qo'shiqlar shular jumlasidan.

Rajabovlar oilasi juda baxtli, inoq oila hisoblanadi. „Bizning oilamiz san'atkorlar oilasidir”- deb ta'kidlaydi o'zi ham. Aslida ham shunday: Turmush o'rtog'i Rajabova Nodira Fattoh qizi Toshkent Davlat Konservatoriyasining “Musiqashunoslik” ixtisosligini tamomlab, musiqashunoslik kasbida faoliyat yuritib keladi. Respublika va xalqaro tanlovlar sovrindori, V.Uspenskiy nomidagi RIMALning oliy toifali o'qituvchisi. N.Rajabovani Respublikada solfedjio fanini yanada rivojlantirish yo'lida yosh avlodni tarbiyalash uchun qo'llanmalar yaratishdagi hissalar juda ko'p. Qizi Shahnoza oilali, oliy ma'lumotli. M.Ashrafiy nomidagi Buxoro va san'at bilim yurtini fortepiano mutaxassisligi bo'yicha hamda Buxoro Davlat Universitetining filologiya fakultetini bitirgan. O'g'li Xurshid oilali, oliy ma'lumotli. Buxoro oziq avqat va yengil sanoat institutini bitirgan. O'g'li Jamshid oilali, oliy ma'lumotli. O'zbekiston davlat konservatoriyasi qashqar rubobi o'qituvchisi, orkestr dirijyori va konsert ijrochisi bo'yicha o'qigan. Respublika tanlovlari sovrindori, V.Uspenskiy nomidagi RIMAL katta o'qituvchisi. U “Tasanno” mukofoti hamda Xalqaro tanlovlar hakamlar xayatining minnatdorchilik faxriy yorlig'iga sazovor bo'lgan. 2023 yili O'zbekiston davlat konservatoriyasi magistraturasini tamomlagan.

2022-2023 o'quv yilida H.Rajabov O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi Nukus filialida “Cholg'u ijrochiligi” kafedrasida qashqar rubobi va dirijyorlik fanlaridan o'qituvchi va xalq cholg'ulari badiiy rahbari va bosh dirijyori lavozimlarida ish faoliyatini davom etib kelmoqda. Bir yil mobaynida o'zining qashqar va afg'on ruboblari sinf konsert dasturi va orkestr bilan Qoraqalog'iston televideniya kompaniyasida jonli efir orqali xalqimizga ko'plab konsert dasturlarini taqdim etishga muvoffaq bo'ldi. Qoraqalpoq kompozitorlari N.Muhammeddinov, M.Jiemuratov, A.Sultonovlarning asarlarini xalq cholg'ulari orkestriga moslashtirib konsert dasturlari o'tkazildi. M.Jiemuratovning “Makarya suluv” baletidan, “Ilon o'ynatuvchi qoshiq” asarini orkestrga moslashtirishi hamda qoraqalpoq olamoynoq dutorini orkestrga qo'shish dutorchilar va xalq uchun katta yangilik bo'ldi. 2022 yil 16-17 Nobabr kunlari O'zbekiston davlat konservatoriyasi katta zalida va Yu.Rajabiy nomidagi maqom institutida xalq cholg'ulari orkestri bilan konsert dasturi bilan qatnashib keldilar. Orkestr repertuarida o'zbek, qoraqalpoq, turkman, qozoq, qirg'iz va evropa kompozitorlari asarlari o'rin olgan.

Xulosa qilib aytganda, H.Rajabov mehribon ota va bobo, mehnatsevar, kamtarin, o'zining mutaxassisliklari bo'yicha yetuk ustoz hisoblanadi. Mehnat faoliyati, ijodiy faoliyatidan o'rnak olsang arziydi. Ustozimizning yosh avlod uchun yozgan o'quv qo'llanmalari va kitoblarida ko'pgina foydali bilimlar o'lsak bo'ladi. Kitoblari va maqolalariga nazar qaratsak ustozga muhabbat, sadoqat, tarbiyaviy bilimlar va risolalar

ko'p kiritilgan. Ustozimizga uzoq umir va sog'lik salomatlik tilab, yanada ijodiy bilimlar va yangiliklar kutib qolamiz.

#### **Paydalanilgan ádebiyatlar:**

1. Charshemov J. Problems of Using Karakalpak Folklore in Composers //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 3. – С. 270-273.
2. Charshemov J. A REVIEW OF MARKABAY JIEMURATOV'S WORK //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 10. – С. 818-821.
3. Niyazbaeva A., Kamalova G. ÓZBEKISTON XALQ BAXSHISI QALLIEV TENELBAY GENJEBAEVICH IJODI //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2023. – Т. 2. – №. 7. – С. 22-24.
4. Begis P., Kamalova G. M. SÓNBES JULDIZ //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 32. – №. 2. – С. 55-59.
5. Aysawle J., Kamalova G. M. SAHRA BÚLBÚLI ROZA QUTEKEEVA //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 32. – №. 2. – С. 60-66.
6. Dauletbaeva G., Kamalova G. A SHINING STAR //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 880-884.
7. Segizbaeva G., Kamalova G. M. DEVELOPMENT OF THE ORCHESTRA OF MUSICAL INSTRUMENTS IN KARAKALPAKSTAN //Modern Science and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 875-879.
8. Niyazbaeva A. J., Kamalova G. M. CHANQOVUZ MUSIQA ASBOBI VA UNING TURLARI //Journal of Integrated Education and Research. – 2023. – Т. 2. – №. 1. – С. 26-30.
9. Kamalova G. M. et al. QARAQALPAQTIN' BAY MIYRASI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 32. – №. 2. – С. 52-54.
10. Kamalova G. M., Axmetovna M. A. QOBIZ HÁM JIRAWSHILIQ DÁSTÚRLERIN SAQLAW //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 9. – №. 1. – С. 123-126.
11. Kamalova G., Akhmetovna M. A. THE LEGACY THAT HAS COME DOWN TO US AS “JETI ASIRIM” //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 9. – №. 1. – С. 117-122.
12. Kamalova G. M. et al. ÓZBEKSTAN XALIQ BAQSISI GAYRATDIN ÓTEMURATOV //TADQIQOTLAR. – 2023. – Т. 25. – №. 1. – С. 40-42.
13. Kamalova G. M. et al. ÓZBEK MUZIKASINDA BALALAR FOLKLORI //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 39. – №. 2. – С. 85-87.